

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

TOSHKENT DAVLAT IQTISODIYOT UNIVERSITETI

UO‘K: 30.43:338.439.63(575.1)

ABDURAXMANOVA ZUXRA TOXIR QIZI

**O‘ZBEKISTON OZIYQ-OVQAT BOZORI ISTE’MOLI JARAYONLARINI
EKONOMETRIK TADQIQ QILISH**

08.00.06 – Ekonometrika va statistika

**Iqtisodiyot fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini
olish uchun taqdim etilgan
DISSERTATSIYA**

**Ilmiy rahbar:
i.f.d., prof. Otajanov Umid Abdullayevich**

Toshkent – 2025

M U N D A R I J A

	KIRISH.....	3
1-bob.	O‘ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORI ISTE’MOLI JARAYONLARINI O‘RGANISHNING NAZARIY- USLUBIY ASOSLARI.....	14
1.1-§.	Oziq-ovqat bozorining nazariy asoslari.....	14
1.2-§.	Oziq-ovqat bozori rivojlanishini prognozlash mexanizmini o‘rganish metodikasi.....	27
1.3-§.	Oziq-ovqat bozori rivojlanishining huquqiy va uslubiy ta’minoti.....	38
	1-bob bo‘yicha xulosalar.....	49
2-bob.	O‘ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORINING HOZIRGI HOLATI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI.....	51
2.1-§.	O‘zbekiston oziq-ovqat bozorining rivojlanish holati va tendentsiyalari tahlili.....	51
2.2-§.	O‘zbekiston aholisi tomonidan oziq-ovqat iste’moli tarkibi va uni belgilovchi asosiy omillar tahlili.....	65
2.3-§.	O‘zbekiston oziq-ovqat bozorini rivojlantirishda marketing va narx omillarining roli.....	77
	2-bob bo‘yicha xulosalar.....	91
3-bob.	O‘ZBEKISTON OZIQ-OVQAT BOZORI ISTE’MOLI JARAYONLARINI MODELLASHTIRISH VA PROGNOZLASH.....	94
3.1-§.	O‘zbekistonda oziq-ovqat iste’moli bozorining rivojlanish tendensiyalarini prognozlash.....	94
3.2-§.	Oziq-ovqat bozori rivojlanishini prognozlash jarayonida iqtisodiy va matematik modellardan foydalanish.....	103
3.3-§.	Ichki milliy oziq-ovqat bozorini rivojlantirish samaradorligini oshirishning ustuvor yo‘nalishlar.....	116
	3-bob bo‘yicha xulosalar.....	126
	XULOSALAR.....	128
	FOYDALANILGAN MANBALAR RO‘YXATI.....	131
	ILOVALAR.....	141

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Dunyo iqtisodiyotida oziq-ovqat bozoridagi iste'mol jarayonlarini takomillashtirish eng muhim strategik vazifalardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishning bosh maqsadi, aholining oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini sifat ko'rsatkichlari yuqori, ekologik jihatdan zararsiz hamda sanitariya-gigiyena me'yorlariga mos mahsulotlar bilan ta'minlashdir. Bu jarayon agrosanoat tizimidagi integratsiyani kengaytirish, mahalliy ishlab chiqarish hajmini oshirish hamda importga qaramlik darajasini qisqartirishga xizmat qiladi. Ushbu rivojlanish iste'molchi daromadlarining o'sishi va demografik o'zgarishlar olib keladigan mahsulot tuzilishidagi islohotlarni talab etadi. Bu esa oziq-ovqat sanoatini yangi hamda yuqori qo'shilgan qiymatli mahsulotlar yaratishga yo'naltirilgan texnologik transformasiya jarayonlarini rag'batlantiradi. Jahonda miqyosidagi iqtisodiy tahlillar shuni ko'rsatmoqdaki, "oziq-ovqat bozorida talab va taklif dinamikasini muvozanatlashtirish, bozor strukturasini samarali boshqarish, shuningdek, logistika va zaxiralarni boshqarish mexanizmlarini takomillashtirish mamlakatlar iqtisodiyotida inflyasiyani nazorat qilish, eksport salohiyatini oshirish va aholi oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashda muhim omillarga aylanmoqda". Shu asosda aytish mumkinki, oziq-ovqat bozori iste'molini takomillashtirish global xo'jalik tizimida oziq-ovqat sanoatining barqaror rivojlanishini ta'minlaydigan, ichki hamda tashqi bozorlar bilan iqtisodiy integratsiyani chuqurlashtiradigan va ijtimoiy farovonlikni oshirishga xizmat qiladigan muhim iqtisodiy omil sifatida namoyon bo'ladi.

Jahonda oziq-ovqat bozori iste'moli jarayonlarini ekonometrik tadqiq etishning ustuvor yo'nalishlari, avvalo, talabning narx va daromad bo'yicha elastikliklarini aniqlashga qaratilgan tizimli talab modellarini (AIDS/QUAIDS, Almost/Quadratic AIDS) qo'llash, uy xo'jaliklari kesimida mikrodarajadagi skaner va tanlanma so'rov ma'lumotlari asosida geterogenlik va mahsulotlar o'rtasidagi almashinuv/komplementarlikni baholash, shuningdek, inflyasiya, narx shoklari va valyuta kurslari o'zgarishlarining iste'molga "pass-through" ta'sirini panel ma'lumotlar, kointegrasiya va Structural VAR usullarida o'rganishga qaratilgan.

Logistika uzilishlari, soliq-subsidiya rejimlari va savdo cheklovlarining oziq-ovqat xavfsizligiga ta'sirini to'liq taqsimotli (distributional) usullar bilan baholash, real-time nowcasting uchun mashinali o'qitish va Bayesian modellardan foydalanish hamda ovqatlanish tarkibidagi "nutritiv tranzisiya"ni (kaloriya, makronutrient strukturasi) monitoring qilish orqali shoklar sharoitida iste'mol dinamikasini aniq identifikatsiya qilish va samarali siyosiy choralarni iqtisodiy jihatdan asoslash bu boradagi tadqiqotlarning ustuvor yo'nalishlaridan hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida aholining sifatli, xavfsiz va gigiyenik talablar asosida ishlab chiqarilgan oziq-ovqat mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini yanada to'liq qondirish masalasiga alohida ustuvorlik berilmoqda. Shu maqsadda oziq-ovqat sanoati faoliyatini samarali rejalashtirish, ishlab chiqarish zanjirlarida zamonaviy standartlarni joriy etish hamda ishlab chiqaruvchilar uchun qulay iqtisodiy muhit yaratish jarayonlari bosqichma-bosqich yo'lga qo'yilmoqda. Ayniqsa, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining (meva-sabzavot, go'sht, sut va boshqa xomashyo) xalqaro talab va standartlarga muvofiq qayta ishlanishi, ichki hamda tashqi bozorlarga raqobatbardosh tayyor mahsulot yetkazib berish imkoniyatlarini kengaytirish va ushbu jarayonni davlat tomonidan institutsional darajada qo'llab-quvvatlash oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashning eng muhim yo'nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu maqsadlarga erishishda oziq-ovqat bozorining rivojlanish tendensiyasini zamonaviy modellashtirish usullari asosida o'rganish, statistik tahlil va bozorni modernizatsiyalash jarayonlarining modellarini ishlab chiqish, mavjud uslubiy yondashuvlarni takomillashtirish ilmiy zarurat sifatida namoyon bo'ladi. Huvoy, oziq-ovqat bozorining rivojlanishini ijtimoiy-iqtisodiy prognozlash uchun nazariy asoslarni tizimli ravishda shakllantirish, ishlab chiqarish va iste'mol bosqichlarining hozirgi holati hamda rivojlanish tendensiyalarini puxta tahlil qilish, shuningdek narxlar dinamikasining iste'mol hajmi va mahsulot sifatiga ta'sirini iqtisodiy jihatdan izohlash muhim ilmiy vazifalardan biridir.

Bundan tashqari, o'rta muddatli istiqbolda oziq-ovqat mahsulotlari iste'moli hajmini yuqori aniqlikda bashoratlash hamda O'zbekiston oziq-ovqat bozori rivojlanishining prognoz ko'rsatkichlarini ishlab chiqish ushbu yo'nalish bo'yicha

ilmiy tadqiqotlarning dolzarbligini yanada kuchaytiradi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 21-fevraldagi PF-37-son “O‘zbekiston-2030” strategiyasini “Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash yili Davlat dasturi to‘g‘risida”, 2023-yil 11-sentyabrdagi PF-158-son ““O‘zbekiston-2030” strategiyasi to‘g‘risida”, 2023-yil 21-iyuldagi PF-111-son “Ma‘muriy islohotlar doirasida investisiyalar, sanoat va savdo sohasida davlat boshqaruvini samarali tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida”, 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”, 2019-yil 23-oktyabrdagi PF-5853-son “O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030-yillarga mo‘ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi farmonlari, 2020-yil 9-sentyabrdagi PQ-4821-son “Respublika oziq-ovqat sanoatini jadal rivojlantirish hamda aholini sifatli oziq-ovqat mahsulotlari bilan to‘laqonli ta‘minlashga doir chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi Qarori hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me‘yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertasiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning Respublikada fan va texnologiyalar rivojlanishiga doir ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Mazkur dissertasiya tadqiqoti respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining “Demokratik va huquqiy jamiyatni ma‘naviy-axloqiy va madaniy rivojlantirish, innovasion iqtisodiyotni shakllantirish” ustuvor yo‘nalishiga mos ravishda bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Oziq-ovqat bozorini rivojlanishini, shuningdek, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni modellashtirish va prognozlashning nazariy va amaliy jihatlari, tarmoqlararo balans modellarini tuzish, texnik taraqqiyot va iqtisodiy o‘rishni ekonometrik tadqiq etish masalalari A.Voltes, N.Kaldor, R.Shepard, G.Teyl, R.Pindayk, J.Moor, A.Lyuis, X.Xaustein, R.Lukas, M.Xirooka, J.Medsen, F.Xayek, M.Kombi singari chet el iqtisodchi olimlarning ilmiy ishlarida tahlil qilingan¹.

¹ Pindyck, R. S., & Rubinfeld, D. L. (2013). Microeconomics. 8th ed. Pearson Education. – 624 b. Leontief, W. (1986). Input–Output Economics. Oxford University Press. – 2-nashr. – 248 b. Lucas R. On the Mechanism of Economic Development/Journal of Monetary Economics. Vol.22.July. P.3-42. 1988; Hirooka M. Innovation Dynamism and

Sanoat ishlab chiqarish va oziq-ovqat sanoati jarayonlarini modellashtirish va prognozlash, ishlab chiqarishni ko'p mezonli optimallashtirish, sanoatning mintaqaviy rivojlanishi va uning ko'p o'lchovli dinamikasini tasniflash masalalari esa MDH davlatlari olimlaridan N.A.Burmistrov, T.Y.Anopchenko, A.I.Novitskaya, L.V.Kantorovich, V.N.Burkov, N.G.Andronnikova, V.A.Kolemaev, S.V.Klementeva, V.S.Muravyeva, A.I.Orlov, M.S.Shashnov, N.K.Sadekova, K.A.Kirdasinova, A.D.Mejevov kabi olimlarning ilmiy ishlarida tadqiq qilingan².

Boshqa davlat olimlari singari oziq-ovqat bozorini rivojlanish jarayonlarini modellashtirish masalalarini tadqiq qilish respublikamiz iqtisodchi olimlarining ham bu boradagi ilmiy qiziqishlari predmeti bo'lib kelmoqda. Jumladan, mamlakatimizning taniqli iqtisodchi olimlari V.Q.Qobulov, S.S.Gulyamov, N.K.Aimbetov, R.X.Alimov, B.Y.Xodiyev, N.M.Maxmudov, B.T.Salimov, Sh.R.Xolmo'minov, X.S.Muxitdinov, I.S.Abdullayev, U.A.Otajanov, B.T.Bayxonov va boshqalarning³ ilmiy ishlarida ishlab

Economic Growth. A Nonlinear Perspective. - Cheltenham, UK Norhampton, MA, USA Edward Elgar), 2006; Madsen J.B. "Semi-Endogenous versus Schumpeterian Growth Models: Testing the Knowledge Production Function using International Data". Journal of Economic Growth, forthcoming, 2008; Хайекф. Цены и производство. Челябинск: Соцнум, 2008; McCombie J.S. In Spreafco M.R.M, Kaldor's "technical progress function" and Verdoorn's law revisited. Cambridge Journal of Economics, 2015.

² Burmistrov N.A. (1983). Моделирование и прогнозирование производственных процессов в пищевой промышленности. – Москва: Финансы и статистика. – 157 с. Regional Development and Industrial Dynamics in the Food Sector. Rostov-na-Donu: RGEU Press. – 82–96-page. Sadekova, N.K. (1995). Экономические модели развития пищевой промышленности. – Минск: БГУ. – 204 с. Новицкая. A.I. (2018). Analysis of the Effectiveness of Control by the Food Industry of the Rostov Region. Rostov-on-Don: SFEDU. – 17–24-page. Kirdasinova, K.A. (2019). Multivector Features of Agricultural Production in the Republic of Kazakhstan. Almaty: KazNU Publishing. – 33–41-page. "Бурмистров Н. А формирование модернизационной стратегии развития предприятий пищевой промышленности: автореф. дис. канд. экон. наук. — Саратов, 2011.; Анопченко Т.Ю, Новицкая А.И. Динамика и тенденции развития пищевой промышленности в современных условиях России [электронный ресурс]:<https://cyberleninka.ru/article/n/dinamika-i-tendentsii-razvitiya-pischevoy-promyshlennosti-vsovremennyh-usloviyah-rossii>; Садекова Н.К. Развитие пищевой промышленности России в условиях импортозамещения (электронный ресурс):<https://creativeconomy.rulib/35798>; Межевов А.Д. Современные тенденции развития отечественной пищевой промышленности. /] Экономические науки, 2012-1(86); Андронникова Н.Г.Баркалов С.А., Бурков В.Н, Котенко А.М, Модели и методы оптимизации региональных программ развития. — М.: ИПУ РАН, 2001; Колемаев В.А. Математическая экономика. М.: Юнити, 2005; Клементьева С.В. Применение теории нечетких множеств для измерения и оценки эффективности реализации наукоемкой продуктовой инновации. // Заводская лаборатория. Т.72. №11. 2006; Муравьева В.С.Орлов А.И. Организационно-экономические проблемы прогнозирования на промышленном предприятии, управление большими системами. Выпуск 17. – М.: ИПУ РАН, 2007.

³ Гулямов С.С. Проблемы моделирования развития территориально-промышленных комплексов. Дисс. на соиск. учен. степени докт. экон. наук. — М., 1974. 1989. Алимов Р.Х. Прогнозный анализ и управление развитием хлопкопромышленных комплексов. Дисс. докт. экон. наук. — Т.: ТГЭУ, 1993. Ходиев В.Ю. O'zbekiston iqtisodida tadbirkorlik rivojini modellashtirish. Iqt. nomzodlik dissertatsiyasi. — TDIU, 2000. Berkinov, B.B. (1975). Tuman hududida qishloq xo'jalik ishlab chiqarishini maqbul ixtisoslashtirish, joylashtirish va rivojlantirish. Nomzodlik dissertatsiyasi. Salimov B.T. (2019). O'zbekiston oziq-ovqat bozorida barqarorlikni